

TIJORAT BANKLARI MOLİYAVIY BARQARORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI
OMILLAR

Botirova Dilorom Narkuzievna

Bank-moliya akademiyasi magistratura talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10684715>

Annotatsiya. Mazkur maqolada tijorat banklari moliyaviy barqarorligiga ta'sir etuvchi omillar haqida so'z boradi. Maqola davomida asosli fikr va mulohazalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, moliyaviy barqarorlik, ta'sir etuvchi omillar, tashqi va ichki omillar.

FACTORS AFFECTING THE FINANCIAL STABILITY OF COMMERCIAL BANKS

Abstract. This article talks about the factors affecting the financial stability of commercial banks. During the article, reasonable opinions and considerations are mentioned.

Key words: commercial banks, financial stability, influencing factors, external and internal factors.

ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ФИНАНСОВУЮ УСТОЙЧИВОСТЬ
КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ

Аннотация. В данной статье говорится о факторах, влияющих на финансовую устойчивость коммерческих банков. В ходе статьи приводятся обоснованные мнения и соображения.

Ключевые слова: коммерческие банки, финансовая устойчивость, факторы влияния, внешние и внутренние факторы.

Tijorat banklari moliyaviy barqarorligiga ta'sir etuvchi omillar tarkibi ikki turga, ya'ni tashqi va ichki omillarga bo'linadi.

1-jadval

Tijorat banklari moliyaviy barqarorligiga
ta'sir etuvchi tashqi omillar

№	Tashqi omillar
1.	Makroiqtisodiy omillar
2.	Bank faoliyatiga oid davlat siyosati
3.	Talab va taklif, to'lov qobiliyati
4.	Pul bozorining rivojlanganlik darajasi

5.	Pul aylanishining holati
6.	Raqobat muhitining rivojlanganligi
7.	Bank tizimi va hamkor tijorat banklari iqtisodiy ahvoli
8.	Qonunchilik va normativ hujjatlar ta'minoti
9.	Tashqi bank infratuzilmasi holati
10.	Banklarga bo'lgan ishonch

Ushbu jadval ma'lumotlarida keltirilgan barcha ta'sir etuvchi omillar tijorat banklari moliyaviy barqarorligiga ham ijobiy ham salbiy ta'sir etishi mumkin, barcha omillarni ta'sir etishidan kelib chiqqan holda, ularni inkor etib bo'lmaydi, boshqa ta'sir etuvchi omillar bilan birga o'zaro aloqadorligi hamda banklar iqtisodiy ahvoliga ta'sir etishidan kelib chiqqan holda kuchli ta'sir etishi ham mumkin. 1-jadval ma'lumotlari asosida tijorat banklari moliyaviy barqarorligiga ta'sir etuvchi tashqi omillarni o'rganishga harakat qilamiz.

Makroiqtisodiy omillarni ko'rib chiqishda eng avvalo, har qanday tijorat banklari moliyaviy barqarorligiga iqtisodiyotning barqarorligi, mamlakat YaIM o'zgarish hajmi, tovarlar aylanishi, eksport va import hajmi, investitsiyalar hajmi, aholi real daromadlilik darajasiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Mamlakat iqtisodiyoti to'g'risida so'z ketganda, davlat moliyasining holati, ya'ni davlatning tashqi qarzi miqdori va byudjet defitsitiga e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Shu bilan birga, iqtisodiyot tarmoqlari ham katta ahamiyatga ega, ayniqsa, iqtisodiyot aniq bir tarmog'iga katta bog'liqligi bo'lsa, ushbu tarmoqdagi holat tijorat banklari moliyaviy barqarorligiga ta'sir etadi.

Shu bois, iqtisodiyot tarmoqlari barchasi bir tekis rivojlanishi banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda ustuvor hisoblanadi. Shuningdek, iqtisodiy rivojlanish jarayonlarida (jonlanish – o'sish – pasayish – inqiroz – depressiya) tijorat banklarida turlicha vazifalari bo'ladi.

Tijorat banklari moliyaviy barqarorligiga ta'sir etishda davlatning, jumladan, davlat siyosatining o'рни beqiyosdir, bunga sabab, iqtisodiy va moliyaviy qiyinchiliklarni boshidan kechirayotgan banklarga davlat yordam qo'lini cho'zadi. Sababi, bu orqali banklarga davlat bozordagi mavqeini tiklashga, ularning moliyaviy shoklarni oldini olishga xizmat qiladi. Davlat bunda tijorat banklari kapitallashuviga mablag' ajratadi, buning natijasida moliyaviy qiyinchiliklarni boshidan kechirayotgan banklar likvidliligi, to'lov qobiliyatini tiklash imkoniyati paydo bo'ladi.

Tijorat banklari moliyaviy barqarorligiga ta'sir etuvchi makroiqtisodiy omillar ichida davlatning soliq siyosatini ham misol sifatida keltirib o'tish mumkin. Sababi, soliqlar hajmi ham tijorat banklarini rivojlantirish, yangi bank mahsulotlarini mijozlarga taqdim etishini kechiktirish

yoki xizmatlarning ancha qimmatlashishiga olib kelishi mumkin. Shu bois, O'zbekiston Respublikasida yangi tashkil etilayotgan tijorat banklari uchun soliq to'lovlariga turli imtiyozlar berish amaliyoti qo'llanib kelinmoqda.

Shu bilan birga, zamonaviy va xorijiy banklar tajribasiga muvofiq, texnologik, mahsuldorlik va innovatsiyalarni joriy etish, risklarni kamaytirish, banklar faoliyati barqarorligini ta'minlashda strategik qarorlar qabul qilishni aniqlash katta ahamiyat kasb etadi. Shu bois, banklar faoliyatiga oid qonunchilik tizimini yangilash ular faoliyatini tubdan yangilashlarga, turli innovatsiyalarni joriy etishga sabab bo'ladi.

Tijorat banklari moliyaviy barqarorligiga talab va taklif, shuningdek, to'lov qobiliyati ham ta'sir etadi. Banklar xizmatlari va mahsulotlariga talabning oshishi, ularning moliyaviy barqarorligiga ijobiy ta'sir etadi. Bir so'z bilan aytganda, banklar yanada ko'p foyda olishga va buning natijasida moliyaviy barqarorligini mustahkamlab yanada yangi imkoniyatlar yaratishiga xizmat qiladi va zamin yaratadi.

Tijorat banklari moliyaviy barqarorligiga pul va moliya bozorining holati sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Barchamizga ma'lumki, har qanday moliyaviy barqaror bo'lgan tijorat banklari ham ma'lum bir vaqtlarda moliyaviy qiyin ahvolga tushishi, to'lov qobiliyatini qisqa vaqtlarda yo'qotishi mumkin. Bunday hollarda, Markaziy bankning pul-kredit siyosati katta rol o'ynashi mumkin. Qayta moliyalashtirish siyosati, shuningdek, Markaziy bankning foiz siyosati evaziga tijorat banklari oborot mablag'lari oshishiga xizmat qiladi, bu esa tovar ishlab chiqaruvchilar iqtisodiyotga, shuningdek, pul bozorida resurslar bahosiga ta'sir etishiga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, banklararo kredit resurslari bozori ham bu erda katta ahamiyat kasb etadi. Chunki ushbu bozordan jalb etilgan resurslar evaziga tijorat banklariga zarur mablag'larni tezda sotib olib, u orqali qisqa vaqtlarda pul mablag'lariga bo'lgan bank ehtiyojini qondirishi, mijozlari oldidagi majburiyatlarini bajarishi mumkin bo'ladi.

Shu kabi holatlarni qimmatli qog'ozlar bozorida ham kuzatishimiz mumkin. Sababi, tijorat banklari moliyaviy barqarorligiga qimmatli qog'ozlar portfelidagi mablag'lar, qimmatli qog'ozlar kursining o'zgarish dinamikasi ham ta'sir etadi. Kotirovkalarning oshishi bank moliyaviy barqarorligiga ijobiy ta'sir etsa, uning tushishi esa bank moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, tijorat banklari faoliyatini tahlil etib borish, zarur hollarda keskin choralarni ko'rish, oldindan bo'ladigan risklarni ko'ra bilish juda muhim ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, banklar moliyaviy barqarorligiga pul muomalasining holati ham sezilarli ta'sir etuvchi omillardan biri hisoblanadi. Chunki, pul muomalasi tijorat banklari kundalik faoliyati bilan bog'liq bo'lib, pul muomalisiz banklar faoliyatini tasavvur etib bo'lmaydi.

Ayniqsa, tijorat banklari o'z funktsiyalarini to'la bajarishlari, ularning bank bozorida o'zlari yaxshi his qilishi natijasida, ularning moliyaviy barqarorligiga ijobiy ta'sir etadi. Lekin, pul muomalasidagi ayrim qiyinchiliklar, naqd pul aylanishidagi muammolar, naqdsiz pul aylanishining etarlicha tezkor emasligi, mijozlar uchun turli qiyinchiliklar va noqulayliklarni tug'diradi, buning natijasida, tijorat banklari moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun, tijorat banklari mijozlar pul aylanishi, pul oqimi, pul muomalasiga katta e'tibor qaratishlari va innovatsion texnologiyalarni joriy etib borishlari maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tijorat banklari moliyaviy barqarorligiga ta'sir etuvchi tashqi omillari ichida raqobat muhiti ham katta o'rin tutadi. Raqobat muhiti etarli darajada rivojlangan sharoitda, tijorat banklari raqobatchi tijorat banklari faoliyatini o'rganib boradi, ancha faol ishlashni, operatsiyalarini kengaytirishi, yangi va sifatli bank xizmatlarini o'z mijozlariga ko'rsatishi, bank faoliyati va xizmat ko'rsatish madaniyatini oshishiga xizmat qiladi. Etarli darajada raqobat muhiti shakllanmagan va rivojlanmagan bir sharoitda, tijorat banklari o'z faoliyatini qisqartirishiga olib keladi, bu esa oxir-oqibatda banklar moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bank infratuzilmasi tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlashga ta'sir etuvchi omillardan biri hisoblanadi. Bank infratuzilmasi mamlakatda tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlash metodologiyasini, kadrlar bilan ta'minlanganlik, ilmiy va texnologik, shuningdek, tartibga solish va audit olib borish tizimi mavjudligini nazarda tutadi. Bank infratuzilmasining mavjudligi, tijorat banklari faoliyati mustahkamligi va barqarorligini ta'minlashga zamin yaratadi, ularni ishonchli xizmat qilishi va rivojlanib borishining kafolati hisoblanadi. Banklar bozorda o'zlarini erkin his etib, o'z faoliyatlarini yanada innovatsion jihatdan rivojlantirishga intilishi kuchayib boradi. Ma'lumotlarning etarliligi, ular faoliyatini pronozlash va shunga ko'ra istiqbolda rivojlanishni belgilashga yordam beradi. Achinarlisi, mamlakatimiz bank tizimida ko'p yillar davomida aholining naqd pullar bilan bo'lgan pul aylanishida bankomatlarining etishmasligi yoki mavjud emasligi, naqd pul berishda mavjud muammolar yoki valyuta operatsiyasidagi ayrim muammolarning mavjudligi tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatib keldi. Hozirgi kunda ushbu muammolarning bartaraf etilgani naqd pul aylanishi va xorijiy valyuta ayirboshlash masalasida muammolar nisbatan hal etilgani, raqobat sharoitida tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlashga va uni mustahkamlab borishga xizmat qilmoqda. Rivojlangan davlatlar tajribasi bank xizmatlarini takomillashtirish va innovatsiyalarni joriy etib borish, bir so'z bilan aytganda, bank infratuzilmasini yaxshilash orqali tijorat banklari moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilishi, mijozlarning tijorat banklariga va bank tizimiga bo'lgan ishonchini oshiradi va

bozorida banklar mavqeini tiklab borishiga xizmat qiladi. Shu bois, tijorat banklari raqobat sharoitida ham foydasini oshirib borishlari bilan birga, ular infratuzilmasiga alohida e'tibor qaratishlari lozim deb hisoblaymiz.

Mijozlar, kontragentlar va aholining moliya-kredit tashkilotlari va tijorat banklariga bo'lgan ishonchining oshib borishi ham yuqoridagi fikrlarimizning davomi hisoblanadi. Ishonch fundamental xarakterga ega bo'lgan jarayon hisoblanadi. Tijorat banklari ularga bo'lgan ishonch mustahkam bo'lgan holatda, boshqa banklardan qiyinchiliklarsiz kredit resurslari jalb etadi, mijozlar ko'z o'ngida ishonchli hamkor sifatida maydonga chiqadi va ulardan omonatlar va depozitlar jalb etishda boshqa banklarga qaraganda ustunlikka ega bo'ladi. Chunki, ishonchning bo'lmashligi, banklar kredit resurslarining bahosi qimmatlashadi, likvidlik holatiga putur etadi, bozorda vahima boshlanadi va tijorat banklari moliyaviy barqarorligi pasayadi. Bejizga xorijiy adabiyotlarda so'nggi paytlarda inqirozlarni – “ishonchlilik inqirozi” deb ta'rif berishmayapti. Sababi, ishonch yo'qolsa bu tijorat banklarining barcha operatsiyalari va uning bozordagi o'rniga katta putur etadi. Afsuski, bugungi kunda olimlar va tartibga soluvchi xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan tijorat banklari “ishonchlilik nazariyasi” ishlab chiqilmagani, ishonchlilik yo'qolishi, inqiroz holatiga olib kelishi, uni baholash masalalari chuqur tadqiq etilmaganligi bilan belgilanadi.

2-jadval

Tijorat banklari moliyaviy barqarorligiga

ta'sir etuvchi ichki omillar

№	Ichki omillar
1.	Strategiya va rivojlanish ustuvorliklarini aniq belgilash
2.	Bank faoliyati ko'rsatkichlarining son va sifat jihatdan oshib borishi
3.	Moliyaviy mablag'larni jalb etish qobiliyati
4.	Risklarga qarshi tura olish qobiliyati
5.	Investitsiya loyihalarini baholash sifati
6.	Xarajatlarni tejash
7.	Ichki infratuzilma
8.	Marketing va boshqarish sifati
9.	Bank zamonaviy texnologiyalari va yangi bank xizmatlarini joriy etishga ehtiyoj
10.	Bank ishini tashkil etish

Yuqorida ko'rib o'tilgan, tijorat banklari moliyaviy barqarorligiga ta'sir etuvchi tashqi omillar tezda va operativ ravishda ta'sir ko'rsatmaydi, balki sekinlik bilan ta'sir etishi mumkin. Shu bilan birga, ushbu ta'sir etuvchi omillar natijasida tijorat banklari moliyaviy barqarorligi mustahkam bo'lgan, banklar nafaqat turli qiyinchiliklar vaqtida o'z faoliyatini saqlab qoladi, balki ular o'z pozitsiyalarini yanada mustahkamlab olishlari mumkin bo'ladi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan ta'sir etuvchi omillar tashqi ta'sir etuvchi omillar hisoblanadi. Shu bilan birga, tijorat banklari faoliyatiga ta'sir etuvchi ichki omillar ham mavjud.

Navbatda biz, tijorat banklari moliyaviy barqarorligiga ta'sir etuvchi ichki omillarni ko'rib chiqamiz.

Tijorat banklari moliyaviy barqarorligiga ta'sir etuvchi ichki omillar ichida eng avvalo, bank strategiyasi va rivojlanish ustuvorliklarini aniq belgilab olish masalasi dolzarb hisoblanadi. Ushbu omil, odatda bir qaraganda nazariy ahamiyat kasb etganday tuyuladi. Chunki, tijorat banklari strategiyasini ishlab chiqishda asosan yo'nalish va amalga oshiriladigan ishlar bayon etiladi. Lekin, ushbu ishlarni amalga oshirish mexanizmi va yo'llari to'liq bayon etilmaydi. Shu bois, tijorat banklari bunga rasmiy yondoshuv bilan qarashadi. Qo'shimcha ravishda, innovatsiyalarni amalga oshirishda xarajatlar manbalari yuzasidan aniqlik va izlanishlar olib borilmaydi. Shu bilan birga, bularga eskicha yondoshuv bo'lsa, ko'zlangan aniq maqsadlarga erishishda turli qiyinchiliklar yuzaga keladi.

Tijorat banklari strategik hujjatlarini tayyorlash murakkab analitik ish hisoblanadi. Achinarlisi shundaki, banklarda kuchli analitikaning mavjud emasligi, strategik xujjatlar tayyorlanishida umumiylik, maqsadni yozish bilan cheklanish, eng achinarlisi esa uni amalga oshirish mexanizmlari to'liq bayon etilmasligi natijasida, ko'zlangan maqsadga erishish murakkabligini keltirib chiqadi. Shuningdek, bu kabi holatlar tijorat banklari moliyaviy barqarorligiga putur etkazadi. Lekin, buning aksi bo'lganda, tijorat banklari moliyaviy barqarorligini nafaqat mustahkamlashga, balki kelgusida faoliyatini yanada rivojlantirishga va moliyaviy mustahkamligini oshirishga xizmat qiladi.

Bank faoliyati ko'rsatkichlarining son va sifat jihatidan oshib borishi ham asosiy ta'sir etuvchi ichki omillaridan biri hisoblanadi. Bu erda gap sonlar va raqamlar to'g'risida ketmoqda, ya'ni kapitalning oshishi, uning etarililigi, aktivlar va passivlar tarkibining sifat va soni jihatidan muvofiqligi, banklar boshqa operatsiyalarida ham muvofiqligini ta'minlash dolzarb hisoblanadi. Banklar faoliyatining son va sifat jihati, kredit va investitsiya portfeli, depozitlar hajmi, mijozlar soni va ularga ko'rsatilayotgan xizmatlarda yanada uning ahamiyati oshadi. Moliyaviy barqarorlik nuqtai nazaridan, tijorat banklar pul aylanishini oshirishi, mijozlarga xizmatlar ko'rsatish hajmi,

sifati va tarkibi juda muhim hisoblanadi. Bu erda eng avvalo, aktivlar rentabelligi (ROA), kapital yetarliligi (ROE) ko'rsatkichlariga, xarajatlar tarkibiga katta e'tibor qaratiladi.

Moliyaviy resurslarni jalb etish qobiliyati banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda katta o'rin tutadi. Bunda, tijorat banklari kapitallashuv darajasini eslamasdan ilojimiz yo'q, sababi, aynan aktsionerlik kapitali orqali kelgusida banklar barqarorligi, daromadi, foydasi va yaratiladigan zaxiralari to'g'risida fikr yuritishi mumkin bo'ladi. Shuningdek, tijorat banklari likvidililigini ta'minlash ham dolzarb hisoblanadi. Sababi, banklarda likvidlilik muammosi kelib chiqqanda, eng avvalo, resurslarni jalb etish, banklararo kredit resurslari bozoridan mablag'lar olish hamda bir so'z bilan aytganda, mijozlar oldidagi bank majburiyatlarini bajarish vaqtida tezkor va operativ hal etish yo'li orqali masalalar echimi kelib chiqadi.

Yuqoridagi fikrlarning uzviy davomi sifatida, tijorat banklarida vujudga keladigan risklar va ularni boshqarish eng dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. To'g'ri tijorat banklari risklarda qochib qutula olmaydi, chunki, risklar barcha bank operatsiyalarida mavjud, qaysiki bir bank katta riskka borsa, u albatta katta daromad olishga ham harakat qiladi. Shu bilan birga, bu kabi katta risklarni moliyaviy barqaror bo'lgan tijorat banklari amalga oshirishlari mumkin bo'ladi. Shuningdek, risklarni to'g'ri baholay olmaslik va hisoblamaslik natijasida, banklarda katta yo'qotishlar ham kelib chiqishi ehtimoldan holi emas. Bu kabi holatlar ayniqsa, iqtisodiy nochorlik holati kuzatilganda va to'lovlardagi ayrim muammolar mavjud bo'lgan hollarda kelib chiqishi barchamizga ayon. Tijorat bankari vujudga kelishi mumkin bo'lgan turli risklarni oldini olish maqsadida, zaxiralar tashkil etishi va ular orqali qiyin bir moliyaviy holatlarda tartibga solish mumkin bo'ladi. Shu bois, tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida tartibga soluvchi organ, ya'ni Markaziy banklar o'rnatgan iqtisodiy me'yorlarga amal qilib borishadi. To'g'ri tijorat banklari risk qiluvchi sub'ekt hisoblanadi, lekin bu risklar banklar kapitalidan oshmagan miqdorda bo'lishi, agar bu holat kuzatilsa, unda ushbu risklar nafaqat banklar moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, balki bank mijozlarining moliyaviy barqarorligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishini esdan chiqarmaslik lozim bo'ladi.

Har qanday tijorat banklari uchun resurslarni jalb etish bilan bir qatorda ushbu resurlardan oqilona va samarali foydalanish eng muhim vazifadir. Shu boisdan, tijorat banklari investitsion loyihalarni moliyalashtirish jarayonida, har bir mijoz tomonidan taqdim etilgan loyihalarning texnik-iqtisodiy asosnomasi, moliyaviy va iqtisodiy samaradorligini berilgan ko'rsatkichlar asosida ularning haqqoniyligi tanqidiy tahlil qilish va baholash orqali investitsion qarorlar qabul qilish, investor sifatida bankning strategik rivojlanishi yo'lida moliyaviy barqarorligini ta'minlaydigan ichki omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Demak, banklar investitsion qarorlar

qabul qilishda, bevosita bankning moliyaviy barqarorligiga ta'sir qilishini hisobga olgan holda, qarorlarni qabul qilishga asos bo'luvchi loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash uslubiyoti va natijalarining haqiqatga yaqinligi hamda to'g'ri yondashuvga ega ekanligiga tijorat banklari tomonidan etarlicha ahamiyat berilishi zarur.


Banklar moliyaviy barqarorligiga ta'sir etuvchi omillardan yana biri bu xarajatlarni tejash hisoblanadi. Har qanday tashkilot kabi tijorat banklarida ham o'z xarajatlari mavjud bo'ladi, lekin, bu xarajatlar va daromadlarini banklar tegishli tartibda o'lchab borishlari lozim bo'ladi. Bu erda barqarorlikni ta'minlashda banklarga xarajatlar tarkibi va byudjetlashtirish katta yordam beradi. Qolaversa, ushbu ishlarni amalga oshirishda tijorat banklari daromadlari etarli bo'lishi, shuningdek, kundalik tartibda bank joriy faoliyatini tahlil etib borishi va keng tarzda moliyaviy barqarorligini oshirib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Tijorat banklari moliyaviy barqarorligiga ta'sir etuvchi ichki omillar ichida ichki infratuzilma ham katta ahamiyat kasb etadi. Ichki infratuzilma tashqi infratuzilma kabi katta ahamiyatga ega, lekin ichki infratuzilma omadga olib borishning yirik kafolati hisobalanadi. Shu bilan birga, informatsion bazaning hajmdorligi, bank ichki me'yoriy hujjatlarining ishlab chiqilganlik darajasi, ichki nazorat tizimining ishlash tartibi, bularning barchasi banklar moliyaviy barqarorligiga ta'sir ko'rsatishi natijasida, uning infratuzilmasi ham o'zgarib borishi lozim. Ichki infratuzilmalar ichida kadrlar va ularning salohiyati ham asosiy rol o'ynaydi. Kadrlar qo'nimsizligi, ularning etarlicha intellektual qobiliyatining mavjud emasligi, o'z ustida muntazam ishlamasligi ham tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Sababi, bank bozorida innovatsiyalar, so'nggi bo'layotgan o'zgarishlar, axborot texnologiyalarning keng qo'llanayotgan kadrlar masalasida ham tegishli o'zgarishlar bo'lishidan dalolat beradi.

Tijorat banklari moliyaviy barqarorligiga marketing va boshqarish sifati ham ta'sir etuvchi asosiy bir omillardan biri hisoblanadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, chuqur o'rganilmagan marketing tadqiqotlari va sifatsiz boshqarish tijorat banklarida katta yo'qotishlarga olib kelishi mumkin. Risklarni oshirishda etarlicha tajriba bo'lmaslik, shuningdek, shubhali bitimlarning qo'llab-quvvatlanishi, prognoz ko'rsatkichlarining noaniqligi natijasida qabul qilingan qarorlar evaziga, tijorat banklarida katta yo'qotishlarga va bu esa ularning moliyaviy barqarorligi pasayishiga olib kelishi mumkin. Buning aksi sifatida, yuqori professional tayyorgarlikka ega mutaxassislarning mavjudligi va bir tekisda rivojlanishga qaratilgan siyosatning olib borilishi, salbiy holatlarni oldini olishga, shu bilan birga kelgusida samarali faoliyat olib borilishi natijasida banklar moliyaviy barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11-sentyabrdagi PF-158 son "O'zbekiston -2030 strategiyasi to'g'risida" Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020 — 2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi
3. Moliya va bank ishi. Elektron ilmiy jurnal.// 2/2020.
4. Abdulazizovich, Abduvakhidov Akmal, and Kamilova Sanobar Mirdjamolovna. "ISSUES OF BANKING SYSTEM DIGITALIZATION IN UZBEKISTAN." *World Bulletin of Management and Law* 11 (2022): 14-19.
5. Abdulazizovich, Abduvoxidov Akmal, and Obilov Mirkomil Rashidovich. "RAQAMLI IQTISODIYOT VA UNING MOLIVAVIY BOZORGA TA'SIRI." *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research* (2022): 71-75.



MODERN SCIENCE
& RESEARCH